

O‘ZBEKISTON – SERBIYA MUNOSABATLARINI SIFAT JIHATIDAN YANGI DARAJAGA OLIB CHIQAIDIGAN TARIXIY SAMMIT

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Serbiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Vuchich rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘lib turibdi.



O‘zbekiston va Serbiya munosabatlari bugun yangi mazmun kasb etmoqda. Ikki davlat o‘rtasidagi muloqot nafaqat ikki tomonlama hamkorlik doirasida, balki keng mintaqaviy aloqalar tizimida muhim o‘rin tutmoqda.

Bu munosabatlar O‘zbekiston tashqi siyosatining muvozanatli va pragmatik yo‘nalishini yana bir bor namoyon etmoqda. Mamlakatimiz keyingi yillarda faqat an‘anaviy hamkorlar bilan cheklanib qolmay, geografiya jihatidan uzoq, ammo iqtisodiy va madaniy

jihatdan yaqin bo‘lgan davlatlar bilan ham munosabatlarni kengaytirishga katta e‘tibor qaratmoqda. Serbiya bilan yaqinlashuv ham shunday yondashuvning amaliy ifodasidir. Bu siyosat nafaqat iqtisodiy manfaatlariga, balki mintaqalar o‘rtasidagi siyosiy barqarorlik va diplomatik tenglikka xizmat qiladi.

Iqtisodiy jihatdan qaralganda, O‘zbekiston — Serbiya hamkorligi ikki tomon uchun ham yangi bozorlar eshigini ochadi. Mashinasozlik, farmatsevtika, axborot texnologiyalari va agrosanoat sohalaridagi

shiriklik loyihalari iqtisodiy integratsiyaning muhim nuqtasi bo‘ladi.

Kelgusidagi hamkorlik yo‘nalishlari faqat iqtisod bilan cheklanmaydi. Ta‘lim, fan, madaniyat va sport sohalaridagi qo‘shma dasturlar xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va o‘zaro ishonchni mustahkamlaydi. Bu jarayonda O‘zbekiston tashqi siyosatining ochiq yondashuvi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Oliy martabali mehmon 28-oktabr kuni “Yangi O‘zbekiston” bog‘iga tashrif buyurib, Mustaqillik monumenti poyiga gul qo‘ydi.

Majmua bilan qisqacha tanishuv asnosida Serbiya delegatsiyasi vakillariga mazkur ansambl mazmuni va me‘moriy yechimlari haqida ma‘lumot berildi.

“Yangi O‘zbekiston” bog‘i va Mustaqillik monumenti istiqlolimizning o‘ttiz yilligiga bag‘ishlab bunyod etilgan. Uch ming yildan ziyod davr — ona Vatanimiz hududidagi milliy davlatchilik tarixi ildizlari shu qadar teran. Monumentga e‘tibor qaratgan kishi mana shu zalvorli o‘tmishning badiiy ifodasiga guvoh bo‘ladi.

Oliy martabali mehmonlar, rasmiy xorijiy delegatsiyalarning mamlakatimizga tashrifi doirasida bu yerdagi monumentga gul qo‘yish an‘anaga aylangan.

Delegatsiya a‘zolari majmuada aks ettirilgan allomalar, buyuk sarkarda va jahongirlar, jadid bobolarimizning siymolariga alohida e‘tibor qaratdi. Tinchlik, erkinlik, ezgulik tim-soli bo‘lgan Humo qushi tasviri majmuaning bamisoli gultojdagi ko‘rinishi e‘tirof etildi.

Shundan so‘ng Ko‘ksaroy qarorgohida Serbiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Vuchichni rasmiy kutib olish marosimi o‘tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oliy martabali mehmonni samimiy qarshi olib, shohsupaga taklif etdi.

Ikki davlat madhiyalari yangradi. Harbiy orkestr sadolari ostida yetakchilar faxriy qorovul saf oldidan o‘tdilar. Rasmiy delegatsiyalar a‘zolarini qutladilar.

So‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Serbiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Vuchichning rasmiy delegatsiyalar ishtirokidagi muzokaralari bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston va Serbiya o‘rtasidagi amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlash istiqbollari ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari Serbiya yetakchisini samimiy qutlar ekan, hamkorlik davridagi

birinchi sammit tarixiy ahamiyatga ega bo‘lishini va O‘zbekiston — Serbiya munosabatlarini sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqishini ta’kidladi.

— Diplomatik munosabatlar o‘rnatilganining 30 yilligi nishonlanayotgan yilda rasmiy tashrifingiz tarixiy voqeadir. O‘zbekistonda Serbiyaga katta xayrixohlik bilan qarashadi. Xalqlarimizni mustahkam do‘stlik rishtalari va o‘xshash mentalitet bog‘lab turadi, — dedi O‘zbekiston Prezidenti.

Muzokaralarda alohida e‘tibor tovar ayirboshlashni ko‘paytirish, mashinasozlik, farmatsevtika, kimyo sanoati, axborot texnologiyalari va raqamlashtirish, agrosanoat majmui, turizm hamda ko‘plab boshqa muhim tarmoqlarda keng ko‘lamli kooperatsiya dasturini tayyorlash masalalariga qaratildi.

“Markaziy Osiyo — Bolqon” yo‘nalishida yangi transport yo‘laklarini, jumladan, Transkaspiy yo‘lagi doirasida rivojlantirish muhimligi qayd etildi.

Hamkorlikning iqtisodiy kun tartibini ilgari surish maqsadida kelgusi yilda Toshkent shahrida Hukumatlararo komissiyaaning birinchi yig‘ilishini o‘tkazishga kelishib olindi.

Tartibli mehnat migratsiyasi, madaniy-gumanitar va ta‘lim sohalaridagi hamkorlik yuzasidan ham fikr almashdilar.

Yetakchilar mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan muzokaralar yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Serbiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Vuchich Qo‘shma deklaratsiyani imzoladilar.

Yetakchilar huzurida hukumatlararo va idoralararo hujjatlar to‘plamini qabul qilish marosimi ham bo‘lib o‘tdi. Jumladan:

— Investitsiyalarni o‘zaro rag‘batlantirish va himoya qilish to‘g‘risida bitim;

— Iqtisodiy hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— Tibbiy xizmatlar sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— Turizm sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— Ta‘lim, fan va madaniyat sohalaridagi hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— Muhandislik, ilg‘or texnologiyalar, sun‘iy intellekt va turdosh sohalardagi hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— Diplomatik kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bayonnomasi;

— Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasidagi hamkorlik bo‘yicha 2026-2027-yillarga mo‘ljallangan dastur;

— Mehnat migratsiyasi sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida memorandum;

— Sport va jismoniy tarbiya sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bayonnomasi;

— Toshkent va Belgrad shaharlari o‘rtasida sheriklik munosabatlarini o‘rnatish to‘g‘risida bitim.

O‘zbekiston bilan Serbiya o‘rtasidagi oliy darajadagi muzokaralar yakunida Ko‘ksaroy qarorgohida daraxt ekish marosimi bo‘ldi.

Faxriy mehmonlar xiyobonida Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Aleksandr Vuchich mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik hamda sheriklik munosabatlarini mustahkamlashga, ikki tomonlama munosabatlar tarixida yangi sahifa ochishga mushtarak intilish ifodasi sifatida daraxt ekdilar. Serbiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Vuchichning mamlakatimizga rasmiy tashrifi davom etmoqda.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O‘ZA muxbirlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

“YANGI O‘ZBEKISTON” GAZETASIDA YANGI LOYIHA –

SUV VA HAYOT

Suv — ulug‘ ne‘mat, uni asrab-avaylash — barchaning burchidir!

Dono xalqimizda suv Yaratgan tomonidan insonga berilgan ulug‘ ne‘mat ekanini ifodalovchi “suv keldi — nur keldi”, “suv qatراسi — dur qatراسi” kabi azaliy naqllar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Suv resurslarini tejash, undan oqilona foydalanish madaniyatini va suv ishlatish samaradorligini oshirish milliy, mintaqaviy va global ahamiyatga egaligicha qolmoqda.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

SUV – ULUG‘ NE‘MAT

UNI ASRAB-AVAYLASH BARCHAMIZNING BURCHIMIZ

Hozirgi keltiriladigan raqamlar barchamizni jiddiy xavotirga solishi kerak, o‘z navbatida, yaqin va uzoq kelajakni ko‘zlab ta’sirchan choralar ko‘rishni taqozo etadi.

Suv Yerning 70 foizini qoplagan bo‘lsa-da, shundan atigi 3 foizi ichish uchun yaroqli. 2023-yilda 2 milliard odam, ya’ni Yer yuzi aholisining chorak qismi toza ichimlik suvsiz qolgan va yaqin 10 yillikda ular safiga yana 700 million kishi qo‘shilishi mumkin. Har kuni dunyoda 5 ming kishi ifloslangan ichimlik suvdan foydalanish oqibatida olamdan ko‘z yummoqda. Olimlar taxminiga ko‘ra, 2030-yilga borib, dunyo aholisining yarmi suv tanqis bo‘lgan hududlarda yashashga majbur bo‘ladi.

Bizning mintaq ham suv muammosi bilan ro‘baro‘ kelgan. Ekspertlar fikricha, yaqin 20 yil ichida mamlakatimizda suv tanqisligi keskin oshadi. O‘zbekiston suv tanqisligi bo‘yicha qizil hududlar qatoriga tushib qolishi ehtimoldan yiroq emas.

Demak, qarshimizda katta savol turibdi: **BUNDAY TAHLIKALI SHAROITDA QANDAY YO‘L TUTMOG‘IMIZ ZARUR VA SHART?**

Muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan 2025-yil mamlakatimizda “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili” deb nomlandi. Qolaversa, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida katta bog‘lar bunyod etilmoqda. Orolning qurigan tubiga hayot qaytdi.

Quvonarlisi, ushbu loyiha xalqaro darajaga chiqdi. Tashqi siyosatdagi tashabbus va diplomatik islohotlarimiz ham natija beryapti. Markaziy Osiyo davlatlari suvdan foydalanishda teng huquqli kelishuvlarga erishdi. Ekologik masalalarda ham yakdil qaror qabul qilish boshlandi. Masalan, shu yil



oktyabr oyining boshida Toshkent shahrida “Markaziy Osiyoda ichimlik suv ta’minoti va oqova suv xizmatlari” mavzusidagi xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. So‘z va amal birligi bois, yangi O‘zbekistonda Suv kodeksi qabul qilindi. Qolaversa, yangi barpo etilayotgan

shaharlarning 30 foizi yashil hudud bo‘lishi shart ekani huquqiy asos bilan qat’iy belgilandi. Prezidentimiz tashabbusi bilan tariximizda ilk bor ariq va kanallar suvini tejash maqsadida ularni betonlash ishlari bajarilmoqda.

▶ Davomi 3-betda

MULOQOTLAR IKKI MAMLAKATNING XALQARO MAYDONDAGI MAVQEYINI MUSTAHKAMLAYDI

Serbiya Prezidenti Aleksandr Vuchich 28-oktabr kuni rasmiy tashrif bilan O‘zbekistonga keldi

O‘zbekiston — Serbiya munosabatlari tarixi o‘ttiz yildan ortiq vaqtni tashkil etadi. O‘sha paytda Yugoslaviya Federativ Respublikasi bo‘lgan, keyinchalik Serbiya va Chernogoriyaga bo‘lingan davlat, 1991-yil 31-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini tan oldi va 1995-yil 18-yanvarda ikki mamlakat o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatildi.

O‘shandan buyon hamkorlik barqaror rivojlanmoqda. Bir necha yillar davomida uning dinamikasi nisbatan past bo‘lgan, so‘nggi yillarda esa O‘zbekistonning tobora faollashib borayotgan tashqi siyosati va xalqaro aloqalarni diversifikatsiya qilish istagi fonida o‘zbek-serb munosabatlari sezilarli darajada mustahkamlandi.

Munosabat

YEVROPA ITTIFOQI BILAN SHERIKLIK AMALIY NATIJAGA AYLANTIRILADI

O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim (KSHHB/EPCA) 2025-yil 24-oktabr kuni tantanali tarzda imzolandi. 2019-yil fevral oyida boshlangan va 2022-yil iyul oyida yakunlangan muzokaralar natijasi bo‘lgan ushbu hujjat 2022-yil 6-iyul kuni Bryussel shahrida parafirlangan edi. Barcha zarur tartib-taomillar bajarilishiga bir muncha vaqt talab qilganidan so‘ng imzolanishi bitimning strategik ahamiyati va ikki tomonlama munosabatlar ko‘lami kengayayotganini tasdiqlaydi. Tuzilma jihatdan 9 bo‘lim, 356 ta modda va 14 ilovadan iborat ushbu kelishuv hamkorlikning deyarli barcha yo‘nalishlarini qamrab oladi.

Bitim imzolanishi O‘zbekistonning ko‘p tomonlama va muvozanatli tashqi siyosatini amaliy natijalar bilan tasdiqlaydi, qolaversa, u mamlakat ichida xalqchil islohotlar, qonun ustuvorligi hamda xalqaro standartlarga uyg‘un demokratik tamoyillarni izchil joriy etishga berilgan ijobiy bahodir.

Inson huquqlari, ochiq boshqaruv va bozor islohotlarida kuzatilayotgan siljishlar Yevropaga yo‘naltirilgan sheriklikni yangi bosqichga olib chiqishga zamin yaratdi.

▶ Davomi 2-betda



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

MULOQOTLAR IKKI MAMLAKATNING XALQARO MAYDONDAGI MAVQEYINI MUSTAHKAMLAYDI

Boshlanishi 1-betda

Rasmiy Toshkent va Belgrad oʻrtasidagi siyosiy muloqot ham sifat jihatidan yangi darajaga koʻtarilmoqda. Ikki mamlakat rahbarlari oʻrtasida yoʻlga qoʻyilgan muntaзам muloqot bu borada muhim qadamlarga aylandi. Shunday qilib, 2023-yil 20-avgust kuni Budapeshtda boʻlib oʻtgan Yengil atletika boʻyicha jahon chempionati doirasida Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Serbiya Prezidenti Aleksandr Vuchich oʻrtasida qisqa suhbat kechdi. Yetakchilar oʻrtasidagi navbatdagi uchrashuv 2025-yil 3-sentabr kuni Pekinda Ikkinchi jahon urushidagi gʻalabaniڭ 80-yilligiga bagʻishlangan parad paytida boʻlib oʻtdi. Ushbu uchrashuvlar tomonlarning oʻzaro hamkorlikni yanada kengaytirish va davlatlararo muloqotni faollashtirishdan manfaatdorligini tasdiqladi.

Ikki mamlakat tashqi siyosat idoralari oʻrtasidagi maslahatlashuvlar oʻzaro hamkorlikni rivojlantirishga sezilarli turtki beriyapti. Masalan, 2017-yil avgust oyida Serbiya TIV siyosiy direktori va Prezidentning Kosovo boʻyicha maxsus vakili Zoran Vuyich Toshkentga tashrif buyurdi. Tashrif davomida BMT, YXHT va UNESCO kabi xalqaro tashkilotlar doirasida siyosiy muloqot va hamkorlik istiqbollari muhokama qilindi.

2021-yilda Toshkentda Serbiya TIV davlat kotibi Nemanya Starovich ishtirokida siyosiy maslahatlashuvlar boʻlib oʻtdi. 2025-yil 9-oktabr kuni Oʻzbekiston va Serbiya Tashqi ishlar vazirliklari oʻrtasida videokonferensiya shaklida siyosiy maslahatlashuvlarning ikkinchi davrasi muvaffaqiyatli kechdi. Serbiya delegatsiyasiga Tashqi ishlar vazirligi davlat kotibi Damyan Yovich boshchilik qildi.

2025-yil sentabr oyida Nyu-Yorkda BMT Bosh Assambleyasi doirasida ikki mamlakat tashqi ishlar vazirlarining uchrashuvi boʻlib

oʻtdi. Ushbu uchrashuvlar Toshkent va Belgrad oʻrtasidagi siyosiy muloqotning yangi arxitekturasini shakllantirishda muhim bosqichga aylandi.

2022-yilda ikki mamlakat tashqi siyosat idoralari oʻrtasida Hamkorlik va idoralararo maslahatlashuvlar toʻgʻrisidagi protokolning imzolaniishi muhim bosqich boʻldi. Hujjat tomonlarning muntaзам maslahatlashuvlar oʻtkazish, madaniy va gumanitar muloqotni kengaytirish va siyosiy hamkorlikni mustahkamlash maqsadini tasdiqladi. 2025-yilda Oʻzbekistonning Serbiyadagi birinchi elchisi (qarorgohi Budapeshtda joylashgan) tayinlanishi ikki tomonlama munosabatlar tarixida muhim qadamga aylandi. Yangi elchi 2025-yil 7-iyulda Serbiya Prezidenti Aleksandr Vuchichga ishonch yorliqlarini topshirdi. Bu ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirishga qiziqish ortib borayotganining yana bir dalilidir.

2025-yil 27-oktabr kuni Oʻzbekiston Tashqi ishlar vazirligida Serbiyaning mamlakatimizga yangi tayinlangan elchisi (qarorgohi Moskva shahrida joylashgan) Momchilo Babichning ishonch yorliqlarini topshirish marosimi boʻlib oʻtdi.

Siyosiy muloqotlar parlamentlararo hamkorlikning mustahkamlanishi bilan yanada chuqurlashmoqda. 2021-yilda Oliy Majlisda Serbiya Milliy Assambleyasi (parlament) bilan hamkorlik boʻyicha parlamentlararo guruh tuzildi. Bu davlatlararo muloqotni rivojlantirish va qonunchilik tajribasini almashish uchun barqaror poydevor yaratdi.

Oʻzbekiston va Serbiya oʻrtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik bu yoʻnalishda katta istiqbollar mavjudligini koʻrsatmoqda. 2025-yil iyul oyida Oʻzbekiston investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri Laziz Qudratov va Serbiya xalqaro iqtisodiy hamkorlik vaziri Nenad Popovich oʻrtasida onlayn muzokaralar boʻlib oʻtdi. Tomonlar iqtisodiy hamkorlikni faollashtirish yoʻlidagi muhim qadam boʻlishi kutilayotgan Savdo va

iqtisodiy hamkorlik toʻgʻrisidagi bitimni ishlab chiqish va imzolashga kelishib oldilar.

Hozirgi paytda Oʻzbekistonda Serbiya kapitali ishtirokidagi sakkizta korxona, jumladan, ikkita qoʻshma korxona va olita yakka tartibdagi tadbirkorlik subyekti faoliyat yuritmoqda. Potensial hamkorlikning asosiy yoʻnalishlari mashinasozlik, farmatsevtika, qurilish, yengil sanoat va taʼlimdir. Oʻzbekiston, shuningdek, mintaqa bozorlariga kirishni taʼminlab, Serbiya uchun Markaziy Osiyodagi muhim sherikka aylanishi mumkin.

Madaniy-gumanitar aloqalar Oʻzbekiston — Serbiya munosabatlarida alohida oʻrin tutadi. Serbiya sanʼat ustalarining 2011 va 2013-yillarda Samarqandda boʻlib oʻtgan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalidagi ishtiroki, shuningdek, serbiyalik tennischi Bojan Yovanovskiyning “Tashkent Open-2013” turniridagi gʻalabasi ikki mamlakat xalqlari oʻrtasidagi doʻstlik va oʻzaro manfaatdorlik ramziga aylandi.

Istiqbollı yoʻnalishlar qatoriga taʼlim almashinuvlarini rivojlantirish, akademik hamkorlik va oʻzaro tushunish hamda ishonchni mustahkamlaydigan qoʻshma madaniy loyihalar kiradi.

Taʼkidlash joizki, Oʻzbekiston — Serbiya munosabatlari oʻzaro manfaatdorlik, ishonch va rivojlantirishga sodiqlikka asoslangan yangi bosqichga qadam qoʻymoqda. Bugungi kunda ikki mamlakat siyosiy muloqotni mustahkamlash, iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish va madaniy aloqalarni faollashtirish uchun keng imkoniyatlarga ega. Oʻzbekistonning xalqaro munosabatlarini diversifikatsiya qilishga qaratilgan faol tashqi siyosat strategiyasini hisobga olgan holda, Serbiya Prezidenti Aleksandr Vuchichning Oʻzbekistonga rasmiy tashrifi yangi istiqbollarini ochadi hamda ikki mamlakatning mintaqaviy va xalqaro maydondagi mavqegini yanada mustahkamlaydi deb ishonch bilan aytilish mumkin.

“Dunyo” AA

Munosabat

YEVROPA ITTIFOQI BILAN SHERIKLIK AMALIY NATIJAGA AYLANTIRILADI

Boshlanishi 1-betda

KSHHB iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish uchun aniq yoʻl xaritasini taklif etib, savdo va investitsiyalarni kengaytirish orqali yangi ish oʻrinlari yaratilishi, Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridan zamonaviy texnologiyalar va nou-xau jalb etilishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sanoatni modernizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish hamda qayta ishlash sohasida qiymat zanjirlarini uzaytirishga zamin hozirlaydi.

Taʼlim, fan va sogʻliqni saqlashdagi hamkorlik universitetlararo qoʻshma dastur,

Bitim infratuzilmaviy bogʻliqlikni kuchaytirishga ham yoʻnaltirilgan. Yevropa Ittifoqining Global Gateway tashabbusi va Transkaspiy transport yoʻlagi doirasida logistika xablari, “yashil” energetika, suv resurslarini boshqarish va iqlimga moslashuv boʻyicha qoʻshma dasturlar ilgari suriladi. Bu eksportni diversifikatsiya qilish, ichki bozorda raqobatni kuchaytirish hamda sifat va xavfsizlik standartlarini yangi pogʻonaga koʻtarishga xizmat qiladi.

KSHHB, shuningdek, “yashil” va raqamli transformatsiya uchun zarur strategik xomashyolar sohasida hamkorlik eshiklarini ochadi. YI — Oʻzbekiston

“

Taʼlim, fan va sogʻliqni saqlashdagi hamkorlik universitetlararo qoʻshma dastur, stajirovka, ilmiy grant va stipendiyalar koʻlamini kengaytiradi. Raqamli iqtisodiyot va “yashil” texnologiyalar boʻyicha Yevropa tajribasi esa davlat xizmatlari sifati hamda fuqarolar turmush tarziga toʻgʻridan toʻgʻri ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

stajirovka, ilmiy grant va stipendiyalar koʻlamini kengaytiradi. Raqamli iqtisodiyot va “yashil” texnologiyalar boʻyicha Yevropa tajribasi esa davlat xizmatlari sifati hamda fuqarolar turmush tarziga toʻgʻridan toʻgʻri ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

Huquq ustuvorligi, sud-huquq islohotlari, korruptsiyaga qarshi kurash, shaxsiy maʼlumotlarni himoya qilish va kibernetika boʻyicha hamjihatlik biznes uchun ishonchli huquqiy muhit va uzoq muddatli samoyalarga mustahkam poydevor yaratadi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM OʻQISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



sammitida belgilangan maqsadlar, shu jumladan, Toshkent shahrida oʻtkazilishi rejalashtirilgan Markaziy Osiyo — YI iqtisodiy forumi va Transkaspiy bogʻliqlik boʻyicha investorlar forumi qoʻllab-quvvatlandi.

Tomonlar kibernetika, terrorizmga qarshi kurash, chegara xavfsizligi va gibril tahdidlarni bartaraf etish yoʻnalishlarida hamkorlikni chuqurlashtirish, Global Gateway doirasida raqamli va barqaror transport bogʻliqligini rivojlantirish hamda strategik xomashyolar sohasida oʻzaro hamjihatlikni kuchaytirishga kelishib oldi.

Parij kelishuvini toʻliq bajarish, Oʻzbekistonning Global Methane Pledge tashabbusiga qoʻshilishi, suv-energetika sohasida innovatsion hamkorlik va Orolboʻyi mintaqasini tiklash boʻyicha qoʻshma saʼy-harakatlar alohida qayd etildi.

Xulosa qilib aytganda, KSHHB tashqi siyosiy yutuqdan ortiq — ichki islohotlarni jadallashtiruvchi samarali dastakdir. U xalq farovonligi, biznesning raqobatbardoshligi va mamlakatning xalqaro imijini oshirishga xizmat qiladi. Endi asosiy vazifa — imzolangan majburiyatlarni oʻlchanadigan amaliy natijalarga aylantirish hamda Oʻzbekiston — Yevropa Ittifoqi sherikligini amalda yangi bosqichga olib chiqish.

Eldor TULYAKOV,
“Taraqqiyot strategiyasi”
markazi ijrochi direktori

ISLOHOTLAR SHIDDATIGA QARAB FAOLIYATIMIZNI QAYTA KOʻRIB CHIQUYAPMIZ

Shu yil 14-oktabrda Prezidentimiz raisligida mahalla tizimini yanada takomillashtirish va joylarda ishlarni samarali tashkil etish masalalari yuzasidan videoselektor yigʻilishi boʻlib oʻtdi. Unda mahalla hayoti bilan bogʻliq dolzarb masalalarga alohida eʼtibor qaratildi. Bir qancha yangi tashabbuslar ilgari surildi.



Mahalla hayoti



Xalqimizda “Otang ham, onang ham mahalla” degan ibora bor. Asrlar davomida shakllangan bu hayotiy haqiqat zamidra mahalladagi hamjihatlik, bir-biriga suyuqchilik boʻlish, kichiklarni eʼzozlash, kattalarga hurmat, taʼlim-tarbiya berish kabi eʼzgu fazilatlarni mujassam. Bugun mahalla fuqarolar yigʻini faoliyatini avvalgi tuzilma bilan qiyoslab boʻlmaydi, albatta. Ayniqsa, “mahalla yetilligi” faoliyati yoʻlga qoʻyilgach, aholi bilan manzilli ishlash tizimi yangi bosqichga chiqdi. Har bir masala, muammoni joyiga chiqib oʻrganish, amaliy yechimlarni hamjihatlikda topishga eʼtibor qaratilgan. Yaqingacha mahalla raisi qandaydir maʼlumotlarni berishdan nariga oʻtmasdi. Chunki vakolatimizda bundan boshqa imkoniyat yoʻq edi. Bugun mahalla tavisyasi, qoʻllab-quvvatlashi bilan odamlarga pul, asbob-uskuna, xomashyo berilyapti.

Bu tuzilmaning huquq va vakolatlari yanada kengaydi. “Mahalla yetilligi” ish koʻlamiga nazar solgan kishi oʻziga xos ish tajribalari, farovonlikka guvoh boʻladi. Yigʻilishda “mahalla yetilligi” faoliyati koʻlami bilan bogʻliq koʻplab imkoniyat, imtiyozlar, mavjud muammolar yechimiga eʼtibor berilgan ayni muddabo boʻldi. Xususan, mahalla aholi bandligini taʼminlash, kambagʻallikdan farovonlik sari yetaklovchi ishonchli tuzilmaga aylanadi. Bu hozirgi ishimiz koʻlamini yanada kengaytiradi.

Shu oʻrinda mahallamiz misolida aholiga berilyotgan koʻmak haqida toʻxtalamb. Yil boshidan buyon oilaviy tadbirkorlik qilmoqchi boʻlgan 35 nafar ishsiz tashabbuskorga 453 million soʻm imtiyozli kredit olib berildi. Mahallamizda xorijda yurgan 121 ta migrant roʻyxatga olingan edi. Buguna qadar aksariyati oilalari bagʻriga qaytdi. Ularga Sayxunobod tajribasi asosida “Biznesga bir qadam” dasturi yoʻnalishida tomorqachilik, chorvachilik, hunarmandlik va boshqa sohalarni uchun 825 million soʻm imtiyozli kredit berildi. Mahalladagi har bir imkoniyatni loyihaga aylantirib, ish oʻrni yaratish uchun bankir va soliqchilarni birlashtirdi. Infratuzilmaga ham alohida mablagʻ ajratilmoqda.

Donishmandlar kitobsiz uyni ruhsiz tanaga qiyos qilgan. Chunki kitob inson tafakkurini charxlaydi. Uni yurtparvar, vatanga sadoqatli va xalq xizmatiga masʼul shaxs qilib tarbiyalaydi. Bunday eʼzgu ishlar mahallamizda ham quloq yozdi. Ikki mingdan ortiq kitob fondiga ega mahalla kutubxonasi ochildi. Bularning barchasi yurtimizda xalqni rozi qilish yoʻlidagi islohotlar sababidir.

Shu kungacha “Yashil makon” umummilliy harakatining bahorgi mavsumida 6 ming tupdan ortiq mevali va manzarali daraxt ekilib, yashil belbogʻlar yaratildi. Ichki elektr tarmoqlarini yangilash, qoʻshimcha transformator va

koʻcha chiroqlari oʻrnatish yuzasidan bildirgan taklifimiz “Ochiq budget” loyihasida gʻolib boʻlib, 1 milliard 200 million soʻmlik qurilish-bunyodkorlik ishlari bajarildi. Mahallamizda asfaltlanmagan koʻcha qolmadi.

Yigʻilishda yana bir yangilik aytildi. Joriy yildan boshlab yer va mol-mulk soliqlarini toʻlanganlik darajasiga qarab “Eng yaxshi soliq toʻlovchi mahalla” reytingi eʼlon qilinadigan boʻldi. Bunda 100 talikka kirgan mahallaga “Tashabbusli budget”ning yangi tizimi boʻyicha infratuzilma xarajatining 75 foizi byudjetdan toʻlab beriladi. Shuningdek, ushbu mahallalarning har biriga qoʻshimcha 2 milliard soʻmdan ajratiladi. Bu ham aholi turmush tarzini yaxshilash, mahallalar obodligi yoʻlida qoʻyilgan muhim qadam. Qonunchilik palatasi deputatlariga oʻz okrugidagi mahallalar infratuzilmasini yaxshilash uchun har biriga 3 milliard soʻmdan berilyapti. Mahalla hududida sanitariya, ekologiya va noqonuniy qurilish boʻyicha jarmalarning 10 foizi mahalla byudjetiga yoʻnatirilmoqda. 2026-yildan boshlab mahallalar byudjetiga har yili 200 milliard soʻmdan ajratiladigan boʻldi. Bunday imtiyoz va imkoniyatlar hech qachon boʻlmagan.

Mahallamizda bogʻdorchilik rivojlanib, 350 gektardan ortiq oʻrikzor bogʻ barpo etildi. Rishtonda mashhur boʻlgan subhoni va qandak navli oʻrik yetishtirish, quritish, qayta ishlashda qoʻshqayronliklarni mirishkor. Har yili oʻrta hisobda 500 tonnadan ortiq quritilgan oʻrik ichki va tashqi bozorga eksport qilinaypti. Bu sohada hali ishga solinmagan qator imkoniyatlarimiz bor.

Videoselektorda “mahalla yetilligi” ayrim hollarda mavjud imtiyoz va imkoniyatlardan samarali foydalana olmayotganini, tashabbus koʻrsatmayotganimiz qayd etildi. Masalan, mahallamizda ham gavjum koʻcha, boʻsh yer va binolar bor. Ammo shu kungacha undan maqsadli foydalana olmaganmiz. Videoselektorda aytilgan fikr va takliflardan kelib chiqib, bu joylarda yangi loyiha va infratuzilma tarmoqlari faoliyatini yoʻlga qoʻyish borasida dastlabki ishlarni boshlab yubordik.

Koʻtarilgan masalalar shunchaki taklif sifatida aytib oʻtilgani yoʻq. Har bir masalaning aniq yechimi, yetarli mablagʻ bilan taʼminlash choralari koʻrilib, masʼullar belgilangan. Shunga munosib tarzda faoliyatimizni qayta koʻrib chiquyapmiz. Maqsadimiz xalqni rozi qilish yoʻlidagi islohotlarga kamarbasta boʻlish.

Dilmurod HAMROYEV,
Rishton tumanidagi
“Qoʻshqayron” mahalla fuqarolar
yigʻini raisi

Bandlik

**Beruniy tumanidagi
“Hunarmand hoji ona”
korxonasi 2015-yildan
buyon faoliyat yuritadi.
Unga 70 yoshni qarshilagan
Jumagul Reyimboyeva
rahbarlik qiladi.**

— Seximizda koʻrpa-yostiqlik, kelinlar uchun sarpolar kabi 20 turdagi mahsulot chiqaramiz. Zamonaviy tikuv mashinalari va uskunalarda 3 daqiqada bitta koʻrpa tayyorlanadi, — deydi hunarmand. — Bu bizga bir kunda 100 ta koʻrpaicha ishlab chiqarish imkonini beradi.

MUAMMOLAR YECHIMI BIR JOYDA

Jumagul momoga kichikligida onasi tikuvchilik hunarini oʻrgatgan. Ayol umrini shu kasbga bagʻishladi. Halol mehnat bilan roʻzgʻorini obod qildi. Bugun u boshqarayotgan korxonada 6 kishining bandligi taʼminlangan.

Tumandagi “Shimom” ovul fuqarolar yigʻini majmuasi Prezidentimizning 2021-yil 18-sentabrdagi “Islom taraqqiyot banki va OPEC xalqaro taraqqiyot jamgʻarmasi ishtirokida “Qishloq joylarni barqaror rivojlantirish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorga koʻra bunyod etilgan. Majmuada sogʻlomlashtirish markazi, tikuvchilik, kasb-hunaraga oʻqitish xonalari, goʻzallik saloni, non va shirinliklarni tayyorlash sexlari mavjud.

— Bu yerda oʻzini oʻzi band qilish istagidagi xotin-qizlarga tikuv mashinalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgan. Ular buyurtma asosida kiyim, pardalar tikib, daromad topadi. Tikuvchilikni oʻrganish istagidagi xotin-qizlar

uch oylik kursda oʻqib, diplom va sertifikat oladi. Shu bilan birga, qandolatchilik, ayollar sartaroshligi ham oʻrgatiladi. Tadbirkor boʻlish istagidagi shaxslarga esa mahalladagi hokim yordamchisi subsidiya va imtiyozli kredit olishda koʻmak beradi. Bundan tashqari, ishsiz ayollarning pishiriqlik tayyorlab sotishi yoʻlga qoʻyildi, — deydi ovuldagi xotin-qizlar faoli Zamiira Roʻzimova. — Masalan, yosh tadbirkor Surayyo Aminboyeva 10 yildan buyon uyida turli shirinliklarni pishirib sotadi. Mahalla majmuasida uning ishlashi va faoliyatini kengaytirishi uchun yetarli sharoit yaratildi.

Bunday imkoniyatlar tadbirkorga qanot bagʻishladi. Hozir u non va shirinliklarni doʻkonlarga yetkazib bermoqda. Ayni paytda koʻp yillik xaridorlarining toʻy-tantanalari uchun ham buyurtmalar qabul qilmoqda. Muhimi, uyda bekor oʻtirgan, sohaga qiziqish bildirgan mahalladosh kelinlarga ustozlik ham qilmoqda.

— Yonimda 5 shogirdim bor, — deydi Surayyo Aminboyeva. — Ular ish koʻlamiga qarab, bir oyda oʻrtacha 5-10 million soʻm atrofida pul topadi.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning bandligini taʼminlashga qaratilgan islohotlarni ularni majmualar yigʻini yigʻini tayyorlab sotishi yoʻlga oʻzgarishlar olis qishloq va ovullargacha yetib borgan kishini quvontiradi.

Yoshligimdan tikuvchilik hunarini tanlagandim. Kelin boʻlib tushgan mahallamizdagi tikuv sexiga ishga taklif qilishdi. Bu sex zamonaviy tikuv mashinalari bilan taʼminlangan. Hozir mahallamizdagi ishsiz opa-singillarimizga tikuvchilikni oʻrgatayapman, — deydi Hamida Oʻrozboyeva. — Ular oʻqib-oʻrganish jarayonida buyurtmalar ham qabul qilyapti. Shu orqali nazariy bilimlar amaliyotda sinalladi. Tikuvchilik hunarini yaxshi oʻzlashtirgan ayollar tadbirkorlik qiladi.

“Shimom” ovul fuqarolar yigʻinining yangi binosida xotin-qizlarning oʻz salomatligini tiklashiga ham alohida eʼtibor berilgan. Bu yerda “Sogʻlom turmush tarzi” markazi faoliyati yoʻlga qoʻyilgan. Haftada uch kun xotin-qizlarga toʻgʻri ovqatlanish boʻyicha tushuncha beriladi.

Markazimizga yoshu qari — xotin-qizlar keladi. Unda barcha sharoit yaratilgan. Sport bilan shugʻullanish uchun zarur jihozlarni bor. Opa-singillarimiz toʻgʻri ovqatlanishni oʻrganish bilan birga jismoniy mashqlar ham bajaradi, — deydi mutaxassis Muyassar Yeshimbetova.


Shu tariqa ovuldagi majmuada xalqimiz ogʻirini yengil, uzogʻini yaqin qilyapti. Chunki ovul ahli barcha masalaga shu yerning oʻzida yechim topmoqda.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM OʻQISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!





“YANGI O‘ZBEKISTON” GAZETASIDA YANGI LOYIHA – SUV VA HAYOT

SUV – ULUG‘ NE‘MAT
UNI ASRAB-AVAYLASH BARCHAMIZNING BURCHIMIZSalim DONIYOROV,
O‘zbekiston Respublikasida
xizmat ko‘rsatgan jurnalist

Boshlanishi 1-betda

Muhimi, jamiyatimizda ekologik madaniyat rivojlanib boryapti. Bugun bitta daraxt kesilsa, birdan: “Nega kesildi?” degan ommaviy so‘rov boshlanadi. Orta qaytmas tus olgan ushbu islohotlar “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining muhim yo‘nalishi sifatida ham belgilab qo‘yildi.

Lo‘nda qilib aytganda, ekologik islohotlar ko‘lami shunchalik kattaki, natijador ko‘rsatkichlarni qisqa raqamlarda sanashning o‘zi bilan gazetaning barcha sahifasini to‘ldirish mumkin. Bundan haqli ravishda faxrlanamiz, yutuqlardan quvonamiz. Ayni paytda hali oldinda bajarilishi zarur bo‘lgan vazifalar ham bor. Shu bois, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturining uchinchi yo‘nalishi “Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish”, deb nomlangan.

Bu yo‘nalishning nomanlisi bizni jurnalist sifatida mulohazaga undadi. Nega suv resurslarini tejash birinchi o‘rinda aytilgan? Atrof-muhitni muhofaza qilask, suv o‘z-o‘zidan tejamaydimi?! Mana shu fikr inson va tabiat munosabatlari, bizni kutayotgan kelajak, yuksalish haqidagi mulohazalarga chorladi.

Beixtiyor yon-atrofni, odamlarni, ularning suvga bo‘lgan munosabatini sinchkilab kuzata boshladim. Ha, “suvni tejash” iborasi bejiz birinchi o‘ringa chiqarilmagan. Ochig‘i, jamiyatimizda ekologik madaniyatni yuksaltirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ko‘nikmasini kuchaytirish, tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish kabi kechiktirib bo‘lmas qator masalalar bor ekan. Bunday dolzarb mavzularni ommaga olib chiqish, muhokamalar maydoniga tashlash, mutasaddilar, oddiy odamlarning diqqatini bu — hayot-mamot masalasiga qaratishi bevosita jurnalistlarimiz oldidagi g‘oyat dolzarb vazifa hamdir.

Ayni maqsadda “Yangi O‘zbekiston” gazetasida yangi — SUV VA HAYOT loyihasiga start berilmoqda. Unda keyingi yillarda suvdan oqilona foydalanish, kundalik turmushimizga va qishloq xo‘jaligiga suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish, tomchilatib sug‘orish usullaridan foydalanish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, bu boradagi ilmiy yondashuvlar, natijalar va e‘tibor qaratish zarur bo‘lgan jihatlar soha mutaxassislari, hurmatli olimlar va ziyolilarimiz fikrlari asosida keng tahlil qilinadi. Ayni paytda ushbu chiqishlar orqali mamlakatimizda ekologik madaniyatni yanada yuksaltirishga hissa qo‘shishni ham niyat qilganimiz. Kimdir “Nega aynan suv masalasi?” degan savolni o‘rtaga tashlashi mumkin. Quyida ushbu qarorga kelishimizning sababi, ya‘ni mavzuning ahamiyati haqida to‘xtalmoqchimiz.

Sun‘iy intellektga ham suv kerak

“Suv — hayotdir” degan hikmatni barchamiz eshitganimiz. Ammo uning hayotimizda qanchalik ahamiyati borligini tasavvur ham qila olmaymiz. Buni nari borsa, suvsizlikdan aziyat chekishimiz, yashilik olami kamayib ketishi bilan bog‘laymiz. Ha, bu ayni haqiqat. Suv kamayaversa, ichimlik suvni topish muammoga aylanadi. Toza ichimlik suvning yo‘qligi esa turli xastaliklarni, hatto yuqumli kasalliklarni ko‘paytiradi. Yerning cho‘llanishi ham inson tanasidagi xastalik kabi zaminimizni g‘ariblashtirib boradi. Oziq-ovqat taqchilligi yuzaga keladi. Mutaxassislar aytishicha, inson kundalik ehtiyojini qoplash uchun bir sutkada 4-5 litr suv ichishi kerak ekan. Yo‘qsa, tanamiz suvsizlikdan turli xastalikka chalinarкан. Suvni me‘yorda ichish esa terimizni tiniqlashtirishdan tortib, miya faoliyatimizgacha ijobiy ta‘sir qiladi.

Shu o‘rinda bitta fakt. Suv Yerning 70 foizini qoplagan dedik. Odam tanasining ham qariyb 70 foizi suvdan iborat. Shu jihatdan yer va inson bir-biriga o‘xshaydi. Qizig‘i, yerning ham, odam tanasining ham cho‘llanishi oqibatida kelib chiqadigan muammolari juda o‘xshash. Masalan, kuniga besh stakandan ortiq toza suv ichsangiz, yurak xuruji xavfi ortga chekina borarkan. Xuddi shuningdek, Ona zaminda suv qancha ko‘p bo‘lsa, ekologik inqiroz shunchalik zaiflashadi. Demak, biz suvni tejash bilan birga, undan samarali foydalanish yo‘lini ham bilishimiz kerak bo‘ladi. Afsuski, jamiyatimiz buni hali to‘la anglab yetgani yo‘q. Agar buni teran his etganimizda edi, ko‘chalarimizda suvlar shunchaki oqib yotmas, mashinamizni uyda yuvmas, umuman, suvga hozirgiday munosabatda bo‘lmasdik.

Piyoda sayr qilish odatim bor. Bu nafaqat sog‘liq uchun foydali, balki jurnalistning real hayotga yaqinroq bo‘lishini ham ta‘minlaydi. Masalan, yo‘li chekkalarida ko‘p kuzataman, daraxtlar va yashil maydonlarni sug‘orish tizimi yaxshi ishlamaydi. Ayrim joylarda daraxtlar qor-yomg‘irdan boshqa suv ko‘rmagani shundoq sezilib turadi. Undan ellik qadam nariga o‘tsangiz, sug‘orish tizimining vaqtida o‘chirib yoqilmasligi, suv purkagichlarning nobopligi sabab asfalt ham ariqqa aylanadi.

Biz Uchinchi Renessansi yaratishday katta maqsad sari dadil boryapmiz. Demak, dunyo-qarashimiz ham, kundalik turmush tarzimiz ham shunga munosib bo‘lishi kerak. Biz endi cho‘llanishning zamonaviy oqibatlari haqida ham teran fikr yuritishimiz zarur. Masalan, hozir cho‘llanish oqibatida yerning hosildorligi pasayadi, bioxilma-xillik yo‘qoladi, o‘simlik va hayvon turlari kamayadi. Atrof-muhitda ekologik muvozanat buziladi. Qolaversa, ichimlik suv taqchilligi kuchayadi. Shu tariqa, iqtisodiy inqiroz va iqlim migratsiyasi paydo bo‘ladi.

Mazkur muammolarga zamonaviy texnologiyalar orqali yechim topish mumkin, degan qarashlar ham yo‘q emas. Ha, texnologiyalar suvni tozalay, qatta ishlashimizda, ularni aqlli nazorat orqali boshqarib, tejamkorlikni oshirishda foyda beradi. Ammo davr shuni ko‘rsatayaptiki, suvsiz qolsak hatto o‘sha texnologiyalar ham to‘la quvvat bilan ishlamasligi mumkin ekan.

Piyoda sayr qilish odatim bor.

“Bu nafaqat sog‘liq uchun foydali, balki jurnalistning real hayotga yaqinroq bo‘lishini ham ta‘minlaydi. Masalan, yo‘li chekkalarida ko‘p kuzataman, daraxtlar va yashil maydonlarni sug‘orish tizimi yaxshi ishlamaydi. Ayrim joylarda daraxtlar qor-yomg‘irdan boshqa suv ko‘rmagani shundoq sezilib turadi. Undan ellik qadam nariga o‘tsangiz, sug‘orish tizimining vaqtida o‘chirib yoqilmasligi, suv purkagichlarning nobopligi sabab asfalt ham ariqqa aylanadi.”

Yaqinda qiziq faktga duch keldim. Bugun barcha sohaga keng kirib borayotgan sun‘iy intellekt ishlashi uchun ham katta suv zaxirasi zarur bo‘larkan. Bunga aniqlik kiritish uchun sun‘iy intellektning javob izladim. Quyida uning javobini tahririz keltiramiz: “Men ishlaydigan katta server markazlari (data center) ishlashi uchun juda katta miqdorda elektr energiyasini sarflaydi. Shu energiya issiqlikka aylanib, serverlarni qizdirib yuboradi. Shuning uchun ularni doimiy ravishda sovitish kerak.

Sovitish usullari:

— havo orqali sovitish — konditsionerlar, ventilyatorlar orqali havo aylantirish;

— suv orqali sovitish — ayrim data-markazlarda suv quvurlar orqali o‘tkazilib, issiqlikni olib chiqadi. Shu jarayonda ancha suv ishlatiladi;

— iqlimdan foydalanish — ba‘zi davlatlarda (masalan, Finlyandiya) sovuq havodan yoki dengiz suvidan foydalaniladi.

Suv sarfi:

— klassik server markazlari yiliga millionlab litr suv ishlatishi mumkin;

— shu bois, ayrim kompaniyalar qayta aylanuvchi (recycling) suv tizimlarini joriy qilmoqda, suv sarfini keskin kamaytirish uchun”.

Bu javobdan so‘ng “Suv — hayotdir” degan hikmatning nechog‘liq teran ma‘noga ega ekanini angladim. Ha, odam ovqatsiz olti hafta yashaydi. Ammo suvsiz bir haftadan ko‘pga bardosh bera olmaydi...

Tan olish kerak, bugun rivojlangan mamlakatlar o‘zining sun‘iy intellektiga ega ekanini bilan ham boshqalardan ajralib turadi. Chunki sun‘iy intellektni bugun oddiy ustalar uchun arifmetik hisob-kitobni tezlashtirishda



qanchalik qo‘l kelayotgan bo‘lsa, mamlakatlar mudofaa tizimida ham shunchalik ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ham katta serverlarga egalik qilishga taraqqiyotning yuksak cho‘qqisi sifatida qaralishi tabiiy. Shu yil 21-oktabr kuni Prezidentimiz raisligida o‘tkazilgan davlat boshqaruvi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarda sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishida bu fikr ham e‘tirof etildi. Soha rivoji uchun katta loyihalarga start berildi. Jumladan, zamonaviy super-kompyuter klasterlari va data-markazlarni ko‘paytirish zarurligi qayd etildi.

Qiziq jihat shundaki, katta serverlarni shamollatib sovitish tizimi samarali ishlashi uchun ham tashqaridagi havoda yetarlicha namlik bo‘lishi talab etiladi. Demak, ana shu maqsadga erishish uchun ham suvni tejashimiz kerak!

O‘rni kelganda yana bitta faktni keltirsak. BMTning 2024-yildagi hisobotiga ko‘ra, jahon miqyosida suvdan foydalanishning taxminan 70 foizi qishloq xo‘jaligiga to‘g‘ri kelar ekan. O‘zbekistonda foydalaniladigan suvning 80 foizi qo‘shni davlatlarda, 20 foizi esa mamlakatimiz hududida shakllanadi.

Ana shu suvning 90 foizi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun sarflanadi. Kelgusida esa bu ko‘rsatkichlarga sun‘iy intellekt ham qo‘shiladi. Chunki taraqqiyot, davr talabi shunga olib keladi.

Mamlakatimizda esa qishloq xo‘jaligida suv sarfini keskin qisqartirish imkonli bor. Chunki hali-hamon fermerlarimizning katta qismi dalaga ariq to‘la suvni to‘liq yuboradi. Ayrim joylarda yerning namligi yoki ekinning talabiga qarab emas, suvning kelishiga moslab tomorqamizni sug‘orishimiz ham bor gap. Bu esa oldimiza bir qator muhim vazifalarni qo‘yadi.

Birinchidan, tomchilatib, yomg‘irlatib sug‘orish tizimini joriy etishning yanada samarali usullari haqida jiddiy o‘ylab ko‘rishimiz zarur.

Ikkinchidan, dehqonchilikda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni o‘rganishimiz va ommalashtirish ehtiyoji bor. Ya‘ni kam joydan ko‘p hosil olish, suvsizlikka bardoshi, samarador navlarni ko‘paytirish borasida ham yangicha yondashuvlar qilish kerak.

Uchinchidan, suv tejashda zamonaviy texnologiyalarni keskin oshirish zarur. Bunda, ayniqsa, qishloq xo‘jaligiga jiddiy e‘tibor berish, suvni qayta ishlash tizimini ommalashtirish muhim.

O‘rni kelganda aytish joiz, bu yilgi davlat dasturida hududlarda suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilishni jadallashtirish vazifasi ko‘rsatib o‘tilgan. Respublika bo‘yicha



jami 500 ming gektar maydonda suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha manzilli ro‘yxat ishlab chiqilgan. Unga ko‘ra, 74,7 ming gektarda tomchilatib, 35,2 ming gektarda yomg‘irlatib sug‘orish ishlari amalga oshirilishi kerak. Buning uchun ilk amaliy qadamlar ham tashlangan. Bugungi kunda 19,2 ming gektar yerda suv tejovchi texnologiya ishga tushirilgan.

Bular kishini quvontiradigan raqamlar. Faqat bir savol bizni o‘ylantiradi. Keng dalalarda samara berayotgan ushbu tizimdan shaharlardagi yashil maydon va daraxtlarni sug‘orishda ham unumli foydalanask bo‘lmaydimi? Axir bitta suvni sachratib beradigan tizimning noto‘g‘ri o‘rnatilishi, o‘z vaqtida texnik ko‘rik qilalmasligi sabab suv bor joyda ko‘chagacha ko‘l paydo bo‘ladi. Tizim ishdan chiqqan joyda daraxtlar tagi qor-yomg‘ir yo‘q sagina namlik ko‘radi. Nazarimda, bunday savollar barchani birdek o‘ylantiradi. Demak, hurmatli olimlarimiz, soha mutaxassislardan qishloq xo‘jaligidagi suvni tejash borasidagi yangi tashabbuslarni, mavjud tizimni jamiyatda ommalashtirish borasidagi fikrlarni kutishga haqlimiz. Va buni juda tez amalga oshirishimiz zarur. Har bir kun g‘animat.

Shu o‘rinda yana bir fakt. Davlat dasturida mahalliy korxonalarining suv tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish ham nazarda tutilgan. Aytishicha, 2025-yilning 22-aprel holatiga ko‘ra, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning soni 60 tani tashkil etgan. Mahalliyatlashirish darajasi 80 foizga. Yillik ishlab chiqarish quvvati esa 250-300 ming gektarga yetkazilgan. Demak, mazkur sohaga ham berilayotgan imkoniyatlar va undan samarali foydalanish, tadbirkorlikning ushbu turini targ‘ib etish borasida chiqishlar qilishimiz zarurati bor. Ehtimol, shu turdagi ishlab chiqarish bilan shug‘ullanayotgan tadbirkorlarda ham sohaga yangilik olib kirish borasida aniq takliflar bordir?! Ha, suv tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqarish, xalqaro standartdagi talablarni o‘rganish ham katta bir mavzu.

Xalqaro tajriba qanday?

Suvni tejash deganda, uzoq yillardan buyon ichimlik suv jo‘mragini ochiq qoldirmaslikni, tish yuvishda suvni idishga quyib olish kabi maishiy masalalarni o‘rtaga olib chiqamiz. Bular ham, hech shubhasiz, zarur chora-tadbirlardan hisoblanadi. Ammo suvni asrash uni kamroq ishlashigagina bog‘liq emasligini tushunib yetishimiz kerak. Masalan, global isish va suv taqchilligi bir-biriga zanjir halqasidagi bog‘liq. Tabiatga chiqarilayotgan zararli gazlar iqlim o‘zgarishiga, bu esa, o‘z navbatida, suv taqchilligiga olib keladi. Suv kamayib borgan sari bug‘lanish ham tezlashadi. Ya‘ni xuddi tepadan tashlangan tosh kabi taqchillik yuzaga kelishi shu jarayonni yanada tezlashtiradi.

Shuning uchun ham suvni bugun — borligida asrashimiz kerak.

Inson sog‘lom umr kechirsa, umri davomida taxminan 55-65 ming litr suv ichadi. Jismoniy faol, issiq iqlimda yashaydigan va sport bilan shug‘ullanadiganlar uchun bu raqam yana 10-15 ming litrga ko‘payadi. Dunyodagi ichimlik suvning 60 foizi muzliklardan keladi. Global isish esa o‘sha muzliklar erishini tezlashtiryapti. Shuning uchun ham Prezidentimiz “Yashil makon” umummilliy loyihasiqa jiddiy e‘tibor bermoqda. Aynan daraxtlar, yashillik dunyosi, bug‘lanishni kamaytiradi. Yer osti suvi ko‘proq saqlanishiga, zararli gazlarning qisqarishiga xizmat qiladi. Demak, oldimiza nafaqat Orolning qurigan tubi kabi cho‘l hududlarni, balki tog‘ va qirlarni ham yashillik dunyosi bilan boyitishda yangicha yondashuvlar vazifasi turibdi. Buning uchun qor-yomg‘ir suvini to‘plab, ko‘chatlarni sug‘orish tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiq bo‘lardi.

O‘rmi kelganda aytish kerak, dengiz, okean bo‘yidagi davlatlarda ham qor-yomg‘ir suvini to‘plab ishlatish tajribasi bor. Bizda ham avval

xurujini kamaytiradi. Semizlik esa bu kasallikni avj oldiradi. Xalqimizda inson semira boshlasa, o‘zini tiklab olibdi degan xato qarash bor. Bu xuddi jala yog‘ishidan xursand bo‘lishday gap. Ikkisi ham yaxshilikday ko‘rinsa-da, xastalikka sabab bo‘ladi.

Yana bir muhim jihat, suv sarfining katta qismi qishloq xo‘jaligiga to‘g‘ri kelishini ta‘kidlab, bu borada ham ayrim fikrlarni aytдик. O‘rmi kelganida ushbu yo‘nalishda bajarilayotgan ayrim vazifalarni e‘tirof etish kerak. Masalan, davlat dasturida suv xo‘jaligi obyektlarida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini joriy qilish nazarda tutilgandi. Quvonarlisi, bu borada joriy yilga mo‘ljallangan ishlar reja asosida bajarilmoqda. Unga ko‘ra, shu yilda 12 ta obyektlar avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimiga o‘tkaziladi. Hozir ularning ayrimlari foydalanishga topshirilgan bo‘lsa, boshqalarida ishlar jadal davom etmoqda.

Bu yutuqlar o‘zimizniki, ammo dunyo tajribasi qanday? Ochig‘ manbalarda e‘tirof etilishicha, suv tejash borasida Isroilning o‘ziga xos tajribasi bor ekan. Masalan, ushbu davlatda avval ishlatilgan suvning 85 foizidan ko‘pi qayta ishlab, sug‘orishga yo‘natilirladi. Bu, albatta, qishloq xo‘jaligida suvni barqaror ta‘minlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, isroillik fermerlar suvni intellekt asosida ishlaydigan texnologiya yordamida dala va ekinlarning real vaqt rejimida tahlillarini kuzatib boradi. Ya‘ni ushbu texnologiya tuproqning namlik darajasi, ob-havo sharoiti va ekinlarning suv ehtiyojini ko‘rsatib beradi. Bunday tahlillar suvdan samarali foydalanishni ta‘minlaydi. Tomchilatib sug‘orish va suvni smart usulda boshqarish uning sarfini 50 foizgacha kamaytirar ekan. Qolaversa, suvdan o‘z vaqtida yetarli darajada foydalanish ekinni me‘yordagi namlik bilan ta‘minlash orqali hosildorlikni oshiradi.

Yechim o‘zlikka qaytish va zamonga moslashishda

Suvdan samarali foydalanishda shuncha masala bor ekan, buning yechimi nimada degan haqli savol tug‘iladi. Bu juda oddiy. Yuqoridagi ajdodlarimiz qoqlardan foydalangani haqida aytдик. Demak, biz suv bilan munosabatda asl ildizga, milliy o‘zanimizga qaytishimiz



kerak. Yaxshi eslayman, yoshlik chog‘imizda dehqonchilikka moslashgan hududlarda nomi dovruq taratgan suvchilar bo‘lardi. Ular katta dalalarga bir ariq suvni teng tarashi bilan nom qozongandi. Ular shunday ishlardiki, bugungi zamonaviy texnologiyalar kabi egatlar orasidagi suv taqsimoti aniq bo‘lardi. Afsuski, bugun shu maktabga darz ketdi. Chunki biz suvga tufflash gunoh degan qat‘iy tutumni yaratdik. Bitta hayotiy fakt. Shu yil Qurbon hayitida Toshkentdagi katta suv oqimlarida mollarning kalla-pochasi, qorin-ichagi va terisi ayovsiz oqizilgan haqidagi gaplar ta‘bimizni xira qildi. Afsuski, boshqa hududlarda ham ahvol bundan yaxshi emas. Buni kim qilyapti? Siz, men, mana shu jamiyat a‘zolari emasmi?! Afsuski, bu achchiq haqiqat.

Bundan ko‘rinadiki, aynan qishloq xo‘jaligida suvdan samarali foydalanishni keng targ‘ib etishimiz zarur. Umuman, suvni asrash tushunchasini jamiyatimizga keng targ‘ib etish, xalqimizga sodda va ta‘sirli so‘zlar bilan yetkazishimiz shart.

Mana shu masalalarni olib chiqish, jamiyatimizda ekologik madaniyatni yuksaltirish borasida jiddiy chiqishlar qilish fursati yetdi. Chunki yangi O‘zbekistondagi ortga qaytmas tus olgan islohotlarga hamohang tarzda jamiyatimiz ham o‘zgarishi shart.

Bu, albatta, jurnalistlar oldidagi muhim vazifalardan biri. “Yangi O‘zbekiston” gazetasida ushbu loyiha orqali mazkur vazifani to‘la ado etishga kirishganini aytmocqchimiz. Bu ham muhtaram Prezidentimiz biz — jurnalistlar, ziyolilar oldiga qo‘ygan “Milliy kontent” yaratish vazifasining bir qismi deb o‘ylayman. Chunki mamlakatimiz manfaatiga, xalqimiz farovonligiga xizmat qiladigan axborot “Milliy kontent” hisoblanadi.

MEHNAT BOZORI VA TA'LIM TIZIMIDA YAGONA RAQAMLI MEKANIZM

Bugungi kunda mehnat bozori va ta'lim tizimi o'rtasidagi muvofiqlik jamiyat taraqqiyotining bosh mezoniga aylandi. Zamonaviy iqtisodiyot uchun bilimning o'zi yetarli emas, uni amaliyot bilan uyg'unlashtira oladigan kadrlar kerak. Shu bois, ta'limdan ishlab chiqarishgacha bo'lgan yo'lni yagona raqamli mexanizmga bog'lash g'oyasiga davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu jarayon texnik yangilanish bilan cheklanmaydi, u boshqaruv madaniyatini, mehnatga munosabatni, inson qadriyatini yangicha talqinda ifodalaydi.

Sharh

O'z yo'lini izlayotgan bitiruvchi, ish topishga urinayotgan yigit-qiz, malakali kadrga ehtiyoj sezayotgan korxona — ularning yo'li bir tizimda tutasha, bu qulaylikdan ham ko'ra kengroq ma'no kasb etadi. O'zbekiston so'nggi yillarda aynan shu uyg'unlikni topishga intilmoqda. Ta'lim tizimini yangilash, raqamli boshqaruvni joriy etish, yoshlarning mehnat bozoridagi o'rini aniqlash bo'yicha ketma-ket qadamlar qo'yilmoqda. Jumladan, oliy ta'lim tizimi bugungi kunda nafaqat bilim beruvchi, balki kadrlar oqimini shakllantiruvchi muhim mexanizmga aylangan.

Bitiruvchi darsni tugatgan zahoti mehnat bozoriga kiradi, shu paytda davlat uchun ham, ta'lim muassasasi uchun ham uning taqdiri e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Shu zarurat Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-sentabrda "Oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining amaliyot o'tashi va ularni ishga joylashtirish tizimini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilinishiga sabab bo'ldi. Qaror ta'lim va mehnat tizimini yagona raqamli mexanizmga birlashtirishni ko'zda tutadi.

Bu hujjat orqali davlat ikki yillik strategik maqsadni ro'yogba chiqarmoqda: bir tomondan, o'quv jarayonini real ishlab chiqarish bilan bog'lash, ikkinchi tomondan esa bitiruvchilarni ishga joylashtirishda elektron nazorat tizimini joriy etish. Shu tariqa ta'lim muassasalari, ish beruvchilar va davlat organlari o'rtasida axborot oqimi yagona yo'nalishga tushadi.

Hujjat Prezidentimizning 2025-yil 14-fevraldagi "Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta'minlashga doir o'g'rimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan uzviy bog'liq. Prezident hujjatida yoshlarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish, ularga zamonaviy mehnat ko'nikmalarini o'rgatish, ta'limdan so'ng bandlikni kafolatlaydigan mexanizm yaratish vazifasi qo'yilgan edi. Qaror ana shu vazifalarning amaliy ifodasi bo'lib, u jarayonni tartibga soluvchi aniq vositani belgilab berdi.

Yangi tartibning asosiy g'oyasi — bitiruvchini tizim markaziga qo'yish. Unda belgilanganidek, raqamli xizmatlar inson hayotining barcha jabhasiga singdirilishi kerak. Ta'lim va bandlik jarayonning eng faol yo'nalishlaridan bo'lib, bitiruvchining hayot yo'lida raqamli tizim bilan birinchi uchrashuvi aynan shu bosqichda sodir bo'ladi.



Ta'lim tashkiloti amaliyot o'taydigan korxona bilan elektron shaklda shartnoma tuzadi, korxona esa, o'z navbatida, tizim orqali zarur kadrlarga bo'lgan ehtiyojini bildiradi. Shu jarayonning o'zi o'qish, amaliyot va ishga joylashuv bosqichlarini yagona zanjirga aylantiradi.

Bu yondashuv davlat siyosatida so'nggi yillarda shakllanayotgan "raqamli transformatsiya" g'oyasiga hamohang. Ta'lim, bandlik va iqtisodiyot o'rtasida real ma'lumot almashinuvi bo'lmaguncha kadrlar siyosatida aniqlik yuzaga kelmaydi. Shu bois, "Yagona milliy mehnat tizimi" (IDAK) orqali bu jarayonni boshqarish davlatning yangi avlod boshqaruv modeliga o'tish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi.

Bitiruvchini ish bilan ta'minlash uzluksiz boshqariladigan tizim shakliga keltirilmoqda. Mehnat bozori raqamli tarzda kuzatiladi, korxonalarning kadrlarga ehtiyoji avtomatik ravishda tahlil qilinadi, ta'lim muassasalari natijadorligi esa real raqamlar asosida baholanadi.

“Yagona milliy mehnat tizimi”

Qarorga ko'ra, endi ta'lim tashkiloti har yili 1-oktabrga qadar "Yagona milliy mehnat tizimi" bazasiga kirgan korxonalarga elektron so'rov yuboradi. Shartnoma amaliyot boshlanishidan kamida uch hafta oldin elektron tarzda rasmiylashtirilishi kerak. Shuningdek, bitiruvchilar haqidagi barcha ma'lumotlar ta'lim tashkiloti tomonidan yakuniy attestatsiya natijalariga asoslanib tizimga kiritiladi. Mamlakat miqyosida real vaqt rejimida kadrlar harakati kuzatiladi. Davlat mehnat bozoridagi o'zgarishlarni kuzatib, zarur chora ko'rish imkoniga ega bo'ladi. Har bir bitiruvchi haqida shakllangan elektron ma'lumot bazasi keyinchalik uning kasbiy faoliyatini baholashda ham muhim rol o'ynaydi.

Yangi tizimda korxonalar faol ishtirok etadi. Ular har oyning 25-sanagacha o'zlari uchun zarur kadrlar, vakant lavozimlar va ishlab chiqarish imkoniyatlariga oid ma'lumotlarni platformaga joylashtiradi. Shu orqali korxona bilan ta'lim muassasasi o'rtasida bevosita aloqa

yo'lga qo'yiladi, talab va taklif to'g'ridan to'g'ri raqamli maydonda uchrashadi.

Bitiruvchi ishga qabul qilingach, uning mehnat shartnomasi tizimda ro'yxatdan o'tadi. Shu bilan u "bandligi ta'minlangan" sifatida belgilanadi. Ushbu mexanizm yoshlar bandligini nazorat qilishning eng ishonchli vositasiga aylanadi. Agar bitiruvchi hali ish topmagan bo'lsa, uning ma'lumoti platformadan Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi axborot bazasiga o'tadi. Natijada davlat idoralari o'rtasida axborot almashinuvi tezlashadi, bo'sh kadrlar zaxirasi aniq ko'rinadi, yangi ish o'rinlari rejalashtiriladi.

Tizimning yana bir ustunligi — idoralararo integratsiya. IDAK platformasi Soliq qo'mitasi, Savdo-sanoat palatasi, "Elektron hukumat" tizimi va boshqa ma'lumotlar bazalari bilan bog'lanadi. Bunday integratsiya 2026-yil 1-yanvargacha qadar yakunlanishi kerak. 2026/2027-o'quv yilidan boshlab esa barcha jarayonlar to'liq raqamli formatda yuritiladi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ
TILIDA HAM O'QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER QILING!

Bu, o'z navbatida, ta'lim va bandlik siyosatini raqamli tahlilga asoslab boshqarish imkonini yaratadi.

Mehnat bozoridagi yangi tartib

Qarorning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatini baholash uchun uni faqat texnik tizim sifatida ko'rish yetarli emas. U inson hayoti, ijtimoiy madaniyati va davlat boshqaruviga bevosita ta'sir ko'rsatadigan islohotdir. Ushbu hujjat mehnat bozorida yangi tartib o'rnatadi. Endi bitiruvchi o'z yo'lini aniq mexanizm orqali belgilaydi. Ta'lim muassasasi uchun bu natijadorlikni o'lg'ichovchi mezon, korxonalar uchun esa zarur kadrlarni topishning tez va shaffof usuli hisoblanadi.

Ijtimoiy tomondan tizim yoshlarda ishonch uyg'otadi. O'qishni tugatgan bitiruvchi ish topish uchun alohida izlanmaydi, chunki uning ma'lumoti allaqachon platformada mavjud. Har bir talaba o'z elektron izi orqali ko'rinadi, korxona shu ma'lumotdan foydalangan holda uni topadi, davlat esa bandlik holatini kuzatadi. Shu tarzda yoshlar amaliyot jarayonida o'zini sinash va tajriba to'plash imkoniga ega bo'ladi.

Ta'lim muassasalari uchun tizim yangi mas'uliyat darajasini keltirib chiqardi. Endi bitiruvchining ishga joylashuvi o'quv dasturining real natijasiga aylanadi. Qaysi yo'nalishdagi mutaxassis tezroq ish topyapti, kimning amaliyoti samarali kechdi — bularning barchasi tizimda ko'rinadi. Shu sababli o'quv dasturlari mehnat bozori ehtiyojlariga moslashib boradi.

Korxonalar nuqtayi nazaridan, bu qaror kadr tanlashda aniq va tartibli mexanizm yaratadi. Ishlab chiqarish korxonalari, tashkilotlar va xususiy sektor o'z ehtiyojlarini platformada e'lon qiladi. Talaba yo'nalishiga mos amaliyot joyini tanlaydi, korxona esa o'ziga kerakli yosh mutaxassisni shu tizimdan topadi. Shu jarayon natijasida mehnat bozori barqarorlashadi, tanlov adolati bo'ladi, insoniy omillar kamayadi.

Iqtisodiy jihatdan tizim ishlab chiqarish bilan ta'lim o'rtasidagi uzviylikni mustahkamladi. Bitiruvchilar ishlab chiqarish sharoitida amaliyot o'tayotgani

sababli ular tayyor kadr sifatida ishga kiradi. Bu korxonalar uchun sifati ishchi kuchi, davlat uchun esa mehnat unumdorligi ortishini anglatadi. Bandlik darajasi, kadrlar oqimi va sohalar kesimidagi tahlillar endi real vaqt rejimida shakllanadi. Shu orqali iqtisodiy rejalashtirish aniq ma'lumotlarga tayangan holda olib boriladi.

Tizimning ijtimoiy foydasi shundaki, u bitiruvchining jamiyatdagi o'rini topish jarayonini yangilashadi. Har bir yosh o'z mehnati va kasbiy yo'lini tizim orqali ko'radi. Shu yo'sinda ta'lim siyosati bilan bandlik siyosati bir maqsadga xizmat qiladi. Natijada jamiyatda ishonch muhitini mustahkamlovchi yangi mexanizm shakllanadi.

Xalqaro tajriba qanday?

Tizimni xalqaro tajriba bilan solishtirish aniq ko'rsatkichlar bilan yanada ravshanlashadi. Germaniyada kasbiy ta'limning dual modeli mavjud. Federal statistika idorasi ma'lumotiga ko'ra, 2022-yilda shu tizimda 468,9 mingta yangi shogirdlik shartnomasi tuzilgan. 2024-yilda tarif asosidagi o'rta oylik shogirdlik to'lovi 1133 yevroga yetgani



shartnoma amaliyoti korxonalar uchun kadr tayyorlashga barqaror rag'bat yaratadi.

Tizim qachon kuchga kiradi?

Qarorda belgilangan tizimni to'liq joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bu jarayon nafaqat texnik yangilik, balki boshqaruv madaniyati o'zgarishini ham ko'zda tutadi. Har bir bosqich o'ziga xos vazifa va muddat bilan belgilanib, umumiy maqsadga — amaliyotdan ishga o'tishga bo'lgan yo'lni yagona raqamli tartibda boshqarishga xizmat qiladi.

Dastlabki bosqich 2025-yilning yakunigacha davom etadi. Shu davrda platformaning texnik asoslari yaratiladi, dasturiy apparat majmuasi shakllantiriladi, IDAK tizimi uchun yagona ma'lumotlar formati ishlab chiqiladi. Bu bosqichda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirliklari o'zaro hamkorlikda ishlaydi. Ularning vazifasi mavjud axborot tizimlarini muvofiqlashtirish, platformani sinov rejimida ishga tushirish, dastlabki natijalarni tahlil qilishdan iborat. Shu bosqichda ayrim oliy o'quv yurtlari va yirik korxonalar asosida tajriba loyihalari yo'lga qo'yiladi. Bu tajribalar orqali texnik nosozliklar, amaliy muammolar aniqlanadi va tizimni mukammallashtirish bo'yicha takliflar tayyorlanadi.

(yiliga 6,3 foiz o'sish) ham korxonalar uchun kadr tayyorlashga rag'bat kuchayayotganini ko'rsatadi.

Yevropa Ittifoqida o'rta kasbiy ta'limni yaqinda tamomlaganlar bandligi yuqori darajada. Eurostatning 2023-yil ko'rsatkichlari bo'yicha bu guruhda bandlik 81 foiz atrofida qayd etilgan, 2024-yilda ko'rsatkich 80 foiz bo'lib turibdi, tendensiya so'nggi yillarda barqaror. Bunda mamlakatlar kesimidagi tafovutlar saqlanadi, lekin umumiy natija ko'rsatadiki, kasbiy yo'nalishdagi o'qishdan keyin mehnat bozoriga kirish tez amalga oshadi.

Janubiy Koreyaning Work-Study Dual System dasturi korxona bazasida ish joyida o'qitishni va o'quv yurtida nazariy tayyorgarlikni uyg'unlashtiradi, HRD Korea rasmiy ma'lumotlari tizimning asosiy tamoyillarini bayon qiladi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) hujjatlarida bu dastur yoshlar bandligini oshirish va malaka mosligini yaxshilash uchun milliy miqyosda qo'llanayotgan vosita sifatida ta'riflanadi. 2018-yildayoq 252 mingdan ortiq xodim qo'llab-quvvatlash choralaridan foydalangani ko'rsatildi.

OECD va Yevropa kasb ta'limini rivojlantirish markazi (CEDEFOP) nashrlarida umumiy manzara bunday tasvirlanadi: kasbiy ta'lim (VET) mehnat bozoridagi malaka tanqisligini yumshatadi, ish joyida o'rganish komponenti kuchli bo'lgan dasturlar esa korxona ehtiyojiga mos ko'nikmalarni tez shakllantiradi. OECDning VET bo'yicha sharhlarida 25-34 yosh toifasida har uch kishidan biri eng yuqori malaka sifatida kasbiy yo'nalishni ko'rsatgan. CEDEFOP esa 2022-yilda EI bo'yicha o'rta bosqich bitiruvchilarining qariyb yarmi kasbiy yo'nalishdan chiqqanini, bu oqimning bandlik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sirini ta'kidlaydi.

Ushbu statistik dalillar O'zbekistonda yo'lga qo'yilayotgan IDAK atrofidagi model uchun uchta muhim xulosa beradi: birinchidan, korxona ishtiroki kuchli bo'lgan shogirdlik va amaliyot yo'li ishga o'tish vaqtini qisqartiradi hamda yoshlar bandligini yuqori tutadi; ikkinchidan, elektron platforma orqali real vaqt rejimida ma'lumotlar yig'ilishi ta'lim dasturlarini bozor talabi bilan tez uyg'unlashtirishga yordam beradi; uchinchidan, shaffof to'lov va

Asliddin ABDURAZZOQOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Bugunning gapi

BILIMLI VA TASHABBUSKOR YOSHLAR

YURTIMIZ IQTISODIYOTIGA MUNOSIB HISSA QO'SHMOQDA

Yurtimizda yoshlarning tadbirkorlik g'oya va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berilmoqda. Shu bois, ularning ishbilarmonlik ko'nikmalarini rivojlantirib, startap va innovatsion loyihalarni ro'yogba chiqarish maqsad qilingan. Prezidentimizning 2025-yilning 14-fevraldagi “Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori ham fikrimiz dalilidir.



Unda “Biznesga birinchi qadam” loyihasiga muvofiq, ijtimoiy o'zini o'zi band qilgan yoshlarga 7 yilgacha muddatga 100 million so'mgacha imtiyozli mikroqarz ajratilishi belgilangan. Bu imkoniyatdan foydalanish uchun ijtimoiy soliq to'lagan yoshlar 18 yoshga to'lgan, ammo 30 dan oshmagan bo'lishi kerak. Qarz esa onlayn shaklda ajratiladi. Uning yana bir qulayligi, asosiy qarz uchun 2-yilgacha va foiz to'lovlariga esa 3 oygacha imtiyozli davr beriladi.

Surxondaryo viloyatida mazkur qaror ijrosi doirasida 462 yoshga 57 milliard 377 million so'm kredit ajratildi. Shu orqali 635 ta yangi ish o'rini yaratildi. “Kelajakka birinchi qadam” loyihasi asosida esa hozirgacha 119 yoshning tadbirkorlik loyihalari qo'llab-quvvatlandi. Ularga 3 milliard 115 million so'm kredit berildi.

Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanayotgan yoshlar safi kengayib bormoqda. Sho'rchi tumani Yakkabog' mahallasida yashaydigan Shahodat Shaymardonova shunday

tashabbuskor yoshlardan. U minglab tengdoshlari qatori orzularini ro'yogba chiqardi. Prezidentimiz qarori asosida imtiyozli kredit olib, kurka boqishni boshladi. Natija yaxshi bo'lgani bois, qisqa vaqtda tadbirkorlik faoliyatini kengaytirdi.

— Kurkakchilik iqtisodiy tomondan samarador. Chunki bozorda kurka go'shti tovuqnikidan qimmat sotiladi, — deydi yosh

tadbirkor Shahodat Shaymardonova. — Go'shti mazali va parhezboq bo'lgan kurkalarning ko'plab zoti bor. Xonaki xo'roz kurkaning tirik vazni 9-35 kilogramm, makiyoni esa 4,5-11 kilogramm keladi. Makiyon kurkalar 8-9 oylikdagi yerga oddiygina in qurib, tuxum qo'yishni boshlaydi. Bir yilda 70-90 ta tuxum beradi. Tuxumining og'irligi 80-88 gramm. Har bir kurkadan 40-60 bosh jo'ja olish mumkin. Ular 4-5 oy boqilib semiritilisa, 160-200 kilogramm go'shti bo'ladi.

Janubiy Koreyada tahsil olib qaytgan sho'rchilik Oybek Toshmirmayev ham kredit olib o'quv markazi ochdi. Hozir tuman yoshlariga xorijiy tillarni o'rgatmoqda.

— Yoshlar xorijda tahsil olib, vatanga qaytib, mamlakat rivojiga xizmat qilishi kerak, deb o'ylayman. Yaratilgan sharoit va boshqaruv sabab o'quv markazi tashkil etdim. Bu joy yoshlar uchun nafaqat bilim manbai, balki kelajakda munosib mutaxassis bo'lishlari uchun katta imkoniyat hamdir, — deydi Oybek Toshmirmayev.

Yoshlarning tashabbusi qo'llab-quvvatlanayotgani bois, tumanda ma'naviy-ma'rifiy muhit yanada boyib bormoqda. Bu borada ham yoshlar faol. Masalan, Abdulahat Muhammadiyev o'zi yashayotgan hudud yoshlari orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish maqsadida faoliyat boshladi. U imtiyozli kredit asosida zarur sport jihozlari sotib oldi. Hozir tadbirkor tashkil etgan sport zalida ko'plab yoshlar shug'ullanmoqda.

Yurtimizda ishbilarmonlikni ilm bilan uyg'unlashtirgan intellektual salohiyatli yuqori, ixtirochi yoshlar safi ham oshib bormoqda. Hozirgacha mato, metall va boshqa sanoat mahsulotlariga rang berishda ishlatiladigan yashil va ko'k pigmentlar, asosan, xorijdan olib kelinadi. Endi bu mahsulotlar o'zimizda tayyorlanishi uchun surxondaryolik yosh olimlari zamin yaratdi.

Termiz davlat universiteti huzurida ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etilgan. Bu yerdagi yosh tadqiqotchilar guruhi tinimsiz ilmiy izlanishlari natijasida pigment ishlab chiqarish texnologiyasini yaratdi.

— Tabiiy minerallar va kimyoviy birikmalarni to'g'ri nisbatda aralashtirish uchun yuzlab tajribalar o'tkazilgan. Kimyoviy formulalar, harorat, zarrachalar o'lchami — hammasi aniqlik va sabr talab etdi. Ana shunday mashaqqatli ish natijasida yashil va ko'k pigmentlar ishlab chiqarish texnologiyasi yaratildi, — deydi texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, tadqiqotchi Sardorbek Sodiqov. — Surxondaryoda ishlab chiqarilayotgan bu pigmentlar 2-3 barobar arzon, sifati esa xalqaro mezonlarga to'liq javob beradi. Ishlab chiqarish yo'lga qo'yilishi ortidan yuzlab yangi ish o'rinlari ochiladi. Muhimi, mahalliy sanoat korxonalari uchun uzluksiz va ishonchli xomashyo manbai shakllanadi.

Bu kabi loyiha mamlakatimizda ilgama e'tibor, yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlar va uning hayotiy natijasidir.

Sarvar TO'RAYEV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



San’at tarixida shunday siymolar bo’ladiki, ular butun bir millatning badiiy tafakkuri, ruhiy uyg’onishi va estetik didining ifodasiga, timsoliga aylanadi. Bu darg’alar vaqt chegarasini kesib o’tadi — davrlar osha o’z qiymatini yo’qotmaydi. Boisi, ular orqali millatning his-tuyg’ulari, orzulari, og’riq va shodliklari gavdalanadi.

Shuning uchun bu nomlar haqida gap ketganda, go’yo qizil baxmal pardalar ko’tarilib, sahna chiroqlari yonib, o’sha jonli lahzalar qayta tiriladi.

Shubhasiz, teatr va kino olamida ham bunday qahramonlar bor. Ular ekran orqali xalqning ichki dunyosini, zamon nafasini, insonning ruhiy iztirob va orzu-umidlarini aks ettirgan. Ular orqali biz hayotning o’zi qanday bo’lishini his etamiz. Teatrda ham, kinoda ham ular qoldingan ma’naviy iz avlodlarning umumiy xotirasini shakllantirgan asarlar sifatida yashashda davom etaveradi.

Shunday insonlardan biri O‘zbekiston xalq artisti, aktyor, rejissyor, dublyaj ustasi, Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Hamza Umarovdir. Uning sahnadagi ovozi, teran nigohi, obrazga kirishdagi yondashuvi o’z davrining san’at maktabini yaratgan, bugungi avlod uchun esa o’chmas ilhom manbaiga aylangan.

Ustoz san’atkorning milliy kinematografiya, teatr, televizion teatrdan yaratgan ko’plab rollari betakrorligi, tabiiyligi, jozibasini ajralib turadi. Ayni paytda hali-hanuz milliy san’atimizda Hamza Umarovdek o’ziga xos jarangdor va o’ktam ovoz sohibi chiqmagani san’atkor iste’dodining nechog’liq ulkanligidan darak beradi.

Hamza Umarov 1943-yili 10-sinfda o’qiyotganida o’z xohishi bilan armiya safiga kiradi va urush yillarida Boltiqbo’yida tashkil topgan o’qchi diviziyada, so’ngra o’qchi polkda razvedkachi sifatida xizmat qiladi. 1944-yilda og’ir jarohat olgani tufayli O‘zbekistonga qaytadi. Ikki yil o’tgach, “O‘zbekfilm” huzuridagi aktyorlar studiyasiga ishga kiradi. 1948-yilda esa teatr va rassomchilik instituti aktyorlik fakultetining uchinchi kursiga qabul qilinadi.

1951-yilda institutni tugatgach, Madaniyat vazirligi yo’llanmasi bilan Muqimiy nomidagi musiqiy drama va komediya teatriga ishga yuboriladi. Rejissyor Meyselning “Moviy Dunay bo’yida” spektaklidagi Vitol Arvid obrazi Hamza Umarovning Muqimiy teatri sahnasidagi birinchi roli hisoblanadi. Shundan so’ng u birgina Muqimiy teatrining o’zida yuzdan ortiq spektaklda rol ijro etdi.

Bundan tashqari, “O’tkan kunlar”, “Ulug’bek yulduzi”, “Dahoning yoshligi”, “Chinor ostidagi duel” kabi kinofilmlarda bir-biriga o’xshamas rollari bilan xalqimiz mehnati qozondi. Pyesalar yaratib, ularni sahnalashtirishda ham jonbozlik ko’rsatdi.


“Ivan Vasilyevich”ning rahmati

— O‘zbekiston xalq artisti Hamza Umarov teatr sahnasida 100 ga yaqin, kinoda 70 dan ziyod rol ijro etgan. Dublyajda 4000 dan ortiq qahramonga ovoz bergan.

U 9 ta pyesa yozgan va teatrdan rejissyor sifatida 7 ta spektakl sahnalashtirgan. Tarjimonlik va tahrir sohasida ham yaxshigina qobiliyat sohibi bo’lgan. Bundan tashqari, u 9 ta spektaklni sahnalashtirish jarayonida qator rejissyorlarga assistentlik qilgan, — deydi O‘Z'R FA San’atshunoslik instituti kino va televideniye bo’limi katta ilmiy xodimi, san’atshunoslik fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

uslubini, uning badiiy harorati va ruhiyatini to’la-to’kis aks ettirish talab etiladi. Buyuk nemis shoiri Gyote “Faust” asarining Jerar tomonidan qilingan fransuzcha tarjimasini o’qib, nemis tilida men “Faust”ni qayta o’qigim kelmaydi, lekin mana bu fransuzcha tarjima meni hamon hayajonga soladi, u sof, yangi va o’tkir tuyuladi”, degan ekan.

Xorij filmlaridan estetik zavq olish uchun ham, birinchi navbatda, uning tarjimasi puxta bo’lishi kerak. Tarjimonning so’z boyligi qanchalik katta bo’lsa, u shunchalik to’g’ri, pishiq va yengil tarjima qilishi tabiiy. Aksincha, agar u biladigan so’z boyligi “o’rtacha” odamning faol so’z boyligidan iborat bo’lsa, unday holda tarjima qilinaotgan asarning ta’siri ham, nafosati ham, uslub go’zalligi ham o’z darajasidan pastlaydi. Shu bois, film tarjimoni o’sha kinoasas muallifi uslubini, janrini, qolaversa, personajlarning xarakter xususiyatlarini, fe’l-atvorini mukammal



Umarov kirib, qizni tabrikлади-da, ozgina tin olib:

— Men yigirma kuncha oldin bir bolani xafa qilib qo’ygandim. Hoy jingalak, bu yoqqa kel, — deb meni qo’li bilan chaqirdi.

Tamom, tarsaki yeganim yetmaganday, hammaning oldida izza bo’laman, ustoz po’stagimni qoqadi. Ikkilanib bordim. Ustoz cho’chib turganimni payqadi, qo’limni mahkam sigdi-da:

— O’g’lim, boshqa hech qachon bu ishni takrorlama. San’atga beparvo qarasang, san’atni xor qilsang, san’at seni undan-da xarob ahvolga soladi. Mudom fidoyi bo’l. Seni ranjitganim uchun meni kechir, — dedi.

Tasavvur qilyapsizmi, Hamza Umarov mendan uzr so’rayapti. Oyoqlariga yiqilib, minba’d bu qilichni takrorlamaslikka va’da berganman. Hamza aka shunday — teatrdan tashqarida ham buyuk, fidoyi, mehnatsevar va oqil odam edi”.

San’atga cheksiz ehtirom

“Mening hurmatimdan sahna hurmati baland. Sahna hurmatidan tomoshabin hurmati ustun”, degan edi Hamza Umarov. Haqiqatan, u sahnani, san’atni, inson qalbini hurmat qilishni o’rgatgan ustoz bo’lgan. Bugun uning ovozi, nigohi, ishga va muxlislarga nisbatan hurmati shogirdlarida, teatr devorlaridagi esdalik suratlarda, har bir jonli so’zda yashab turibdi.

— Biz Hamza bilan bir sahnaga chiqishga cho’chib turardik, — degan ekan O‘zbekiston xalq artisti Sur’at Po’latov subhatlaridan birida. — Chunki u sahnani “o’ziniki qilib oladigan” xatti-harakatlari, ovozi va yuz-ko’z ifodalari bilan partnyorlarini ham hayratga sola oladigan tug’ma iste’dod sohibi edi. Hamza Umarovning boshqalarga, ayniqsa, yoshlarga namuna fazilatlarini ko’p bo’lgan. Bu odam nihoyatda madaniyatli, intizimli, o’ziga va boshqalarga o’ta talabchan san’atkor edi.

— “Otam mashhur aktyor” degan o’y xayolimga kelmagan. U inson men uchun mehribon va oilaparvar ota edi. Uni juda kam ko’rardik. Chunki u yillarda hali televideniye sohasi unchalik yaxshi rivojlanmagan, aktyor va qo’shiqchilarning umri gastrol safarlarida o’tardi. Atrofimdagi insonlar ham otang san’atkor demasdi. Nazarimda, otamning mashhuriligi 10-sinfda o’qiyotganimda his qilganman. Otam rahmatli ham har narsaga o’z kuchim bilan erishishimni istagan. O’qishni tamomlab, Moskvadan qaytgan yilim kichik sahnalar va restoran zallarida spektakllar namoyish etib yurdik. Balki o’zbek teatrlaridan biriga borganimda otamning hurmati uchun ham meni ishga olishardi. Ammo buni ikkimiz ham istamaganmiz, — deya xotirlaydi Hamza Umarovning o’g’li Shuhrat Umarov. — Dadam “Haqiqiy san’atkor umrini, hayotini, borlig’ini san’atga rostmaga bag’ishlagan insondir”, deb ko’p ta’kidlar, o’zi ham shu so’zlarga sodiq qolgan ijodkor edi. Uning biror bo’sh daqiqasi

bo’lganini sira eslolmayman. Doim sahna asarlari, kino, dublyaj, radiospektakllar bilan band edi. Mashinani tutaza turib yoki uyda biror yumush bajarish paytida ham yangi spektakl yoki film qahramonlari so’zlarini yodlab, takrorlard. Sahnani yuksak, tomoshabinini, san’atni esa undan ham yuksak deb bilib, cheksiz hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo’lardi.

“Uning uchun rolning katta-kichigi bo’lmagan”

— “O’tkan kunlar”dagi Homid, “Alibobo va qirq qaroqchi”dagi Qaroqchi, “Mahallada duv-duv gap”dagi Umar, “Chinor ostidagi duel”dagi Hojimurod, “Shum bola”dagi Sulton kissavur kabi qahramonlari orqali aktyor ijro mahorati, obrazga yondashuv uslubi, texnikasi, badiiy izlanish chegaralari cheksizligi kabi xususiyatlarini o’zida yaqqol aks ettira oladi, — deydi Hafiza Niyozova. — Mahoratli aktyor Hamza Umarov kichik bo’lsa-da, unga ishonib topshirilgan rollarida katta xarakter, ya’ni hayotiy obrazlarni yaratgan olgan. Bunda unga o’tkir nigohlari, ma’noli qarashlari va albatta, ovozi yaqindan yordam bergan.

Hamza Umarov uchun rolning katta-kichigi bo’lmagan. Uning uchun obraz mohiyatini ochib berish va xarakterini turli bo’yoqlarda ko’rsata olish muhim hisoblangan. Aktyor fotografiyasini kuzatar ekanmiz, uning ushbu rollari ham bosh qahramon kabi ahamiyat kasb etganini tan olmay iloj yo’q.

Xususan, Hamza Umarovning “O’tkan kunlar” filmidagi Homid roli ikkinchi plandagi qahramon. Ammo uning filmda tutgan o’rni nihoyatda katta. Qahramonning asarda nazarda tutilgan mohiyati aktyor ijrosida o’z maqsadiga qay yo’l bilan bo’lmasin yetmasdan qo’ymaydigan, o’taketgan xudbin, ko’rolmas va qotillik darajasigacha borishga tayyor yaramas inson. Aktyor bu obraz mohiyatini ochishda unga nafaqat salbiy xislatlarni singdiradi, shu bilan birga, atrofidagilar bunday qabih niyatidan voqif bo’lmasiligi uchun uni ayyor qilib ko’rsatgan holatlar ham ko’zga tashlanadi. Bu Homid rolning mukammal badiiy qiyofasini yaratishda muhim rol o’ynagan. Umuman olganda, aktyor siymosida salbiy qahramon chin ma’no’da hayotiylik kasb etgan. Chunki u obraz yaratish ishiga alohida tayyorgarlik ko’rib, umrini bag’ishlagan, izlangan.

Hamza Umarov bir-birini takrorlovchi obraz yaratishdan mutlaqo yiroq bo’lgan. Shu o’rinda uning Homid obraziga zid bo’lmish “Mahallada duv-duv gap” filmidagi Umarjon obrazini eslash o’rinli. U ota-ona ta’riga qarshi borishga jur’at qilolmaydi, biroq ich-ichidan o’zi ko’ngil qo’ygan qiz bilan baxtli yashashni istaydi. Onasining qattiqqo’lligi, otasining beparvoligi, o’z navbatida, sevgan qizining qat’iyati Umarjonni noqulay vaziyatga solib qo’yadi. Hamza Umarov ushbu rolda qalban azoblanayotgan qahramon obrazini yaratishda, asosan, sukut saqlash va imo-ishoralaridan unumli foydalangan. Bu Hamza Umarovning operator V.Vladimirov tas-maga muhrilgan yirik plandagi nigohlari, ko’z qarashlari, xo’rinishlarida yaqqol ko’rinadi. Shu o’rinda “Mahallada duv-duv gap” filmi rejissyori Shuhrat Abbosovni san’atga yetaklagan inson Hamza Umarov ekanini faxr bilan tilga olish joiz.

Hamza Umarov hayot yo’lida o’zini har jab-hada toblab, xalq mehniri qozongan serqirsa san’atkorlardan biri edi. Garchi bu ijodkor bugun oramizda yo’q bo’lsa-da, uning sahna va ekran san’atida yaratgan betakror rollari, dublyajda ovoz berib jonlantirgan qahramonlari uni bizga hamisha eslatib turadi. Tinimsiz ijodiy izlanishlari sababli “Betakror aktyor” hamda “Dublyaj qiroli” nomlarini olgan O‘zbekiston xalq artisti Hamza Umarovning ajoyib rollari, ovoz bergan obrazlari, sahnada yaratgan personajlari, yozgan ssenariylari va rejissyorlik ishlari qalbilda abadiy saqlanib qoladi.

Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

YUQORI SIFATLI BEPUL TIBBIY XIZMAT

IJTIMOIIY HIMOYAGA MUHTOJ SHAXSLAR BUNDAN MAMNUNMI?

Konimex tumanining Zafarobod shaharchasida istiqomat qiladigan Gabet Safarov yura olmaydi. U uzoq yillardan buyon bo’g’im kasalliklari asoratidan aziyat chekardi. Ammo murakkab jarrohlik amaliyoti uchun xorijga borishga imkon topa olmasdi. Moliyaviy qiyinchilik tufayli muolajalar ortga surilishi oqibatida butunlay yurolmay qoldi.

Inson qadri uchun

Yaqinda mahalladagi ijtimoiy xodim uni kambag’allik reyestriga kiritdi. Bundan qahramonimiz qalbiga yana umid yug’ondi. Mutaxassislar ko’rigidan o’tgach, murakkab jarrohlik amaliyoti viloyatning o’zida o’tkazilishi aytiladi. Buni eshitgan Gabet akaning ishonchi yanada mustahkamlandi.

Albatta, ayni vaqtda yurtimizda murakkab va yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlari muvaffaqiyatli o’tkazilmoqda. Buning uchun xorijga borish shart emas. Gabet Safarov ham Navoiy viloyati ko’p tarmoqli tibbiyot markazida davolandi. Barcha tibbiy jarayonlari tekin amalga oshirildi. Ayni vaqtda 46 yoshli bemor yana yurish arafasida.

— Endi qaytib yurolmasam kerak degan o’йда qattiq tushkunlikka tushgandim, — deydi Gabet Safarov. — Yaqin kunlarga bu kabi murakkab tibbiy amaliyotlar faqat xorijda o’tkaziladi deya o’ylardim. Moliyaviy imkonim yo’qligi tufayli yurishdan umidimni uzgandim. Mahallamiz ijtimoiy xodimi kambag’allik reyestriga kiritib, tibbiy muolajalardan tekin foydalanishimda yordam berdi. Inson qadri ulug’langan yurtida biz kabi ehtiyojmandlar ham e’tibordan chetda emasligiga amin bo’ldim.

Navoiy viloyatida Sog’liqni saqlash boshqarmasi tasarrufidagi tibbiyot markazlarida kambag’al oilalar reyestridagi bemorlarga



tekin xizmat ko’rsatilmoqda. Hatto zaruratga qarab jarrohlik amaliyoti ham tekin bajarilyapti.

— Hozir kambag’allik reyestrda turgan 66 bemor ro’yxatga olingan. Ularni tekin

davolash jarayoni bosqichma-bosqich kechmoqda, — deydi Navoiy viloyati Sog’liqni saqlash boshqarmasi bosh jarrohi O’tkir Xushvaqto. — Ulardan birining onkologik kasallik bo’yicha dori-darmon,

5 nafarining buyrak ko’chirib o’tkazish, 43 nafarining turli jarrohlik amaliyoti, 10 nafarining konservativ davo hamda 2 nafarining tibbiy jihazlarga ehtiyoji bor. 55 nafari davlat tibbiyot muassasalarida, 3 nafari esa xususiy shifoxonalarda davolanishi rejalashtirilgan. Ayni vaqtda ushbu fuqarolardan 25 nafari statsionar tartibda davolanmoqda. Poytaxtdagi markaziy shifoxonalarda davolanish uchun 14 fuqaroga elektron imtiyozli yo’llanmalar shakllantirildi. Shu vaqtgacha ularning 3 nafarida endoprotezlash yuqori texnologik amaliyoti, 3 nafarida otoringologiya yo’nalishida va 2 nafarida ko’z kasalliklari bo’yicha jarrohlik amaliyoti muvaffaqiyatli o’tkazildi.

Tibbiyotdagi islohotlar natijasida viloyat, shahar va tumanlardagi shifoxonalar ham yangicha qiyofa kasb etmoqda. Ularda yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlari bajarilmoqda. Navoiy viloyati ko’p tarmoqli tibbiyot markazida ham shunday amaliyotlar, jumladan, buyrak transplantatsiya qilinaotgani sohadagi yutuqlardan dalolatdir.

Ayni vaqtda kambag’allik reyestridagi 3 fuqaro donrlari bilan birga birlamchi tibbiy tekshiruvlardan o’tmoqda. Natijalarga qarab, ularda buyrak transplantatsiyasi o’tkaziladi.

Navbahor tumanidagi Ko’hnaoq’rg’on mahallasida yashaydigan Tursunoy Ochilova mahallaning ijtimoiy xodimi ko’magida kambag’allik reyestriga kiritilgan. Ayni kunlarda bemor yuqori texnologik jarrohlik amaliyotiga tayyorlanmoqda.

— 2017-yildan buyon kasallik bilan kurashib kelaman, — deydi Tursunoy Ochilova. — Bir yil avval yura olmay qoldim. Tizzamni davolash uchun turli muolajalar oldim, foydasi bo’lmadi. Mutaxassislar bu kasallikni faqat jarrohlik yo’li bilan davolash mumkinligini aytdi. Davolanishga 45-50 million so’m zarur edi, imkonim yetmadi. Mahalladagi ijtimoiy xodim holatimni o’rganib, kambag’allik reyestriga kiritdi. So’ng davolanish uchun ko’mak so’radim. Hozir birlamchi tibbiy ko’rik va muolajalar qilinyapti. Yaqinda yuqori texnologik jarrohlik amaliyoti o’tkaziladi. Shifokorlar to’liq yurib ketishimga umid berdi. Barcha jarayon tekin amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz ilgari surgan “Inson qadri uchun” degan ulug’vor g’oya bugun oddiy insonlar hayotida aksini topmoqda. Shu bois, ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlar mehr va e’tiborni his etib, hayotga ishonchi yanada mustahkamlanayapti.

G’olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM	Tahririyatga kelgan qo’lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatl chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqqam bilan ro’yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-1046. 34751 nusxada bosildi.	Navbatchi muharrir: Nasiba Abdullayeva Musahhih: Sherzod Mahmudov Dizayner: Zafar Ro’ziyev
MUASSIS: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi	Bosh muharrir: Salim DONIYOROV	Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog’oz bichimi A2. Bahosi kishilshgan narxda.	Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko’chasi, 85-uy
Qabulxona: (71) 233-56-33	Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98	E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05	O’za yakuni — 01:40
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.		“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadordlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.	